

GIYOHVAND MODDALARGA TOBE BEMORLARNING SOG'AYISH CHASTOTASI

N.Q. Kenjayeva

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

S.E. Umirov

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi

Alfraganus universiteti

A.YA. Buriyev

Turon universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18149844>

Kirish. Giyohvand moddalarga tobek (GMT) retsidivi global muammo bo'lib, jahon miqyosida qaytalanish chastotasi o'rtacha 40-60% ni tashkil etadi, hamda bu ko'rsatkichlar davolashning samaradorligiga, qo'llanilayotgan terapevtik yondoshuvlarga, shaxsning ruhiy va ijtimoiy holatiga bog'liq. Shu bilan birga GMT retsidivi jahonning turli mintaqalarida ma'lum darajada tafovutlarga ham ega va ko'rsatkichlar, davolashning samaradorligiga bog'liq tarzda dinamikada o'zgarib turishi mumkin. Hukumatning siyosati, ya'ni mamlakatdagi qonunlar va siyosatlar giyohvandlikka qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Shularga ko'ra giyohvand moddalarga tobekni davolash samaradorligi, remissiyaga erishish va retsidivlar chastotasini mintaqaviy darajada baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molik.

Maqsad. Samarqand viloyatida giyohvand moddalarga tobe bemorlarning tobekdan sog'ayish darajasini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Samarqand viloyatida 2010-2024 yillar mobaynida GMT dan sog'ayish holatlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotda klinik, epidemiologik, ijtimoiy-gigiyenik, laborator va statistik usullardan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Giyohvand moddalarga tobe patsiyentlar o'rtasida remissiya chastotasining dinamikasini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, 2010-2024 yy. mobaynida ≥ 6 oy remissiya chastotasi 4,3% dan (2014 y.) 40,9% (2018 y.) gacha ko'lamda tebranib, o'rtacha 14,6% patsiyentlarda qayd etilgan. Xususan, Samarqand viloyatida giyohvand moddalarga tobe patsiyentlar o'rtasida ≥ 6 oy remissiya chastotasi, 2010-2016 yy. mobaynida 10,0% atrofida yoki pastroq darajada, 2017-2019 yillarda nisbatan yuqoriroq darajada - 21,0-40,9% oralig'ida kuzatilgan. Ko'p yillik dinamikada giyohvand moddalarga tobe patsiyentlar o'rtasida remissiya chastotasi o'sish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga ko'p yillik dinamikada GMT patsiyentlar o'rtasida remissiya chastotasining o'sish tendensiyasi kuzatilayotgan bo'lsada, 2020 yildan boshlab uning yaqqol pasayishi qayd etilmoqda. GMT patsiyentlar o'rtasida o'rtacha remissiya chastotasi (14,3%), jahondagi ortacha ko'rsatkichdan (20-35%) past.

Xulosalar. Tadqiqot remissiya chastotasining nisbatan pastligini ko'rsatadi. 2010-2024 yy. mobaynida, remissiya o'rtacha 14,6% GMT patsiyentlarda qayd etilgan va dinamikada o'sish tendensiyasiga ega. Samarqand viloyatida remissiya chastotasining nisbatan pastligi, patsientlarni majmuaviy davolashga qaratilgan klinik, epidemiologik va jamoat salomatligi nuqtayi nazaridan integratsiyalangan va resurslar samaradorligini oshiradigan terapevtik hamda rehabilitatsion yondashuvlar qo'llanilishini taqazo etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A., Rakhimova N.S. Modern trends in drug addiction in Central Asia: regional features and preventive strategies // Journal of Public Health and Epidemiology. - 2022. - No. 3 (45). - P. 78-89.
2. Tursunov B.M., Abdullayeva Sh.Kh., Mirzayev A.U. Analysis of the dynamics of drug distribution in the regions of Uzbekistan: socio-demographic aspects // Bulletin of Narcology. - 2021. - Vol. 20, No. 8. - P. 34-48.
3. Sadykov R.N. Classification and characteristics of psychoactive substances common in the Samarkand region: a medical and social study // Narcology and Psychiatry. - 2023. - No 2 (67). - P. 112-125.
4. Hakimov O.T., Yusupova M.A. Regional features of drug use in Uzbekistan: epidemiological analysis and prognostic models // Central Asian Medical Journal. - 2022. - Vol. 28, No. 4. - P. 203-218.
5. Normatov A.B., Ismailov D.K., Rakhmatova Z.I. Monitoring of the drug situation in the Samarkand region: methodological approaches and results of a five-year study // Preventive Medicine. - 2023. - No. 1 (89). - P. 45-59.
6. Juraev N.M. Socio-economic factors of the spread of drug addiction in rural areas of the Samarkand region // Sociology of Health and Medical Anthropology. - 2021. - No. 4 (32). - P. 167-182.